



**Canadian School
of Tashkent**

**O'zbekistondagi
birinchi Kanada
maktabi**

Qabul boshlandi



TA'LIM SOHASIDAGI YETAKCHILIK

**"Canadian School of Tashkent"
O'zbekistonda tashkil etilgan ilk Kanada
maktabi ekanligidan faxrlanadi.**

Biz Toshkent shahrining markazida joylashgan kampusimizda bolalar uchun rag'batlantiruvchi ta'lim muhitini yaratamiz. Biz ta'lim sohasida mukammallikka erishib, raqamli ta'limni o'qitish tizimimizga tatbiq etganimizdan faxrlanamiz.

Kanadaning ta'lim markazi degan yuksak mavqeyiga asoslanib, biz ta'limga o'ziga xos yondashuvimiz orqali bo'lajak novatorlar va o'z oldiga yuksak maqsadlarni qo'ygan kelajak avlodni tarbiyalashga intilamiz. Kanada ta'lim tizimi - bu siz farzandingizga kiritgan qimmatli sarmoya va uning porloq kelajagini qurish uchun to'g'ri qaror.



**"Canadian School of
Tashkent"da biz
talabalar boy
tasavvurga ega,
intiluvchan va ijodiy
fikrlaydigan insonlar
bo'lib yetishishlari
uchun ta'limga
alohida e'tibor
beramiz."**



TEZKOR FAKTLAR

O'ZBEKISTONDAGI YAGONA XALQARO KANADA MAKTABI

**SINFDAgi TALABALARNING
O'RTACHA SONI**

18

O'QITISH TILI:

INGLIZ TILI

Maktabgacha ta'lim (2-5 yosh),
Boshlang'ich ta'lim (6-11 yosh),
O'rta ta'lim (12-14 yosh)

GO'SHIMCHA O'RGATILADIGAN TILLAR:

RUS, O'ZBEK TILLARI



Kampusimiz Tashkent shahrining
Mirobod tumanida joylashgan bo'lib,
u Tashkentning barcha hududlarida
istiqomat qiluvchi oilalar uchun
qulay joylashuvga ega.

**TALABALARIMIZ
QAYERDA
TA'LIM
OLADILAR?**

**BIZNING
O'QITUVCHI-
LARIMIZ**

Ijodiy fikrlaydigan,
intiluvchan, xalqaro
ta'limga ega
hisoblanadi.

20+

**BIRGALIKDA
BAJARILADIGAN /
DARSDAN TASHQARI
MASHG'ULOTLAR**

Sport
Klublar va hamjamiyatlar
San'at
Robototexnika
Makerspace
va boshqalar

TA'LIMGA BO'LGAN O'ZGACHA YONDASHUV



“Canadian School of Tashkent”da biz o'quvchilarimizni o'z salohiyatlarini to'liq namoyon etishga o'rgatamiz. Biz buni katta ishtiyoq hamda ijodkorlik bilan talabalarimizning milliy va xalqaro miqyosda rivojlanayotgani va yuqori natijalarga erishayotganini ko'rish uchun qilamiz. Farzandingiz kelajagi uchun “Canadian School of Tashkent”ni tanlash – bu to'g'ri qaror, chunki biz:

1

Raqamli ta'limning cheksiz imkoniyatlari orqali talabalarda qiziqish va ijodkorlikni uyg'otuvchi O'zbekistondagi ilk Kanada maktabimiz.

2

Kanada va xalqaro miqyosdagi o'quv dasturiga ega, ingliz tilida ta'lim beruvchi maktabimiz.

3

Yuqori malakali o'qituvchilar va xodimlar yordamida dunyodagi eng yaxshi ta'lim tizimini taqdim etamiz.

4

Sport klublari, talabalar hamjamiyatlari va xalqaro musobaqalar kabi birgalikda bajariladigan/sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali talabalarning ta'lim olish va shaxsiy rivojlanishga bo'lgan intilishini rag'batlantiramiz.

O'QUV REJASI

Biz maktabgacha, boshlang'ich va o'rta ta'lim bosqichlari uchun Kanada va xalqaro o'quv dasturlarini o'zaro uyg'unlashtirgan holda taqdim etamiz.

Bizning jahon andozalari darajasidagi o'quv dasturimiz O'zbekistondagi eng fidoyi o'qituvchilar qatoridan joy olgan yuqori malakali milliy va xalqaro o'qituvchilar tomonidan o'qitiladi.

Innovatsiyalarni tatbiq etish va ta'lim sifatini oshirish bo'yicha sa'y-harakatlarimiz doirasida biz raqamli ta'lim yondashuvlarini o'qitish tizimimizga integratsiya qilmoqdamiz.

Raqamli ta'limga e'tibor qaratgan holda, biz talabalarimizga o'zlari istagan tarzda ta'lim olish imkoniyatini taklif qilamiz, jumladan, asosiy va qo'shimcha kurslar kombinatsiyasi orqali o'zlari xohlagan ta'lim yo'lidan borishlariga imkon beruvchi kurslar to'plamini ularga taqdim etamiz.

Bizning asosiy o'quv dasturimiz va uning kontenti "1:1" qurilmalari kabi raqamli platformalar orqali o'qitiladi hamda talabalarimiz o'rtasida ilm olishga bo'lgan qiziqishni uyg'otishga yordam beradi.



BIZNING XODIMLARIMIZ

Biz talabalarimizga ta'lim berish va ularni ilhomlantirish uchun yuqori malakali o'qituvchilar va yetakchi mutaxassislarni birlashtirganmiz. Ta'lim sohasida o'z oldimizga qo'ygan natijalarga erishish maqsadida biz xodimlarimizni saralab olganmiz.

O'qituvchilar jamoasi mahalliy, kanadalik va boshqa xorijiy o'qituvchilardan iborat bo'lib, ular 21 asrga mos ta'lim darajasini taqdim etish uchun o'quv dasturiga katta mas'uliyat bilan professional ko'nikmalar va raqamli ta'limdan foydalangan holda amal qiladilar.

Bizning jamoamiz O'zbekiston va xorijda ta'lim sohasini boshqarish va unda yetakchilik qilish bo'yicha ko'p yillik amaliy tajribaga ega.

Bizning o'qituvchilarimiz Kanada ta'lim tizimidagi eng yaxshi ta'lim yondashuvlaridan foydalangan holda talabalarimizga eksklyuziv xalqaro ta'lim dasturini taqdim etish uchun kerak bo'lgan malaka va tajribaga egalar.

Yuqori malakali o'qituvchilarimiz va yetakchi mutaxassislarimiz haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lish uchun www.canadianschool.uz veb-saytimizga kiring.



QABUL

Biz uzluksiz qabul siyosatiga muvofiq yil davomida talabalarni qabul qilamiz. O'qishga qabul qilish uchun joylar bo'sh o'rinlar mavjudligiga qarab taqdim etiladi.

“Canadian School of Tashkent”ga kirish uchun quyidagi me'zonlar mavjud:

1

MAKTAB BO'YLAB TURLAR – IXTIYORIY

Maktab bo'ylab turlar – bu Kanada maktabimiz bilan tanishishning eng yaxshi usuli hisoblanadi.

Bunday individual turlar davomida siz jamoamizning yetakchi a'zosi bilan mehmondo'st va ajoyib kampusimizni aylanasiz, maktab binolarini ko'rasiz va bizning xodimlarimiz hamda o'qituvchilarimiz bilan uchrashasiz. Qabul komissiyamizning qabuliga yozilish orqali siz kampus bo'ylab individual turni tashkillashtira olasiz. Sizni intiqlik bilan kutib qolamiz!

2

HUJJATLARNI TOPSHIRISH

Agar siz “Canadian School of Tashkent”ni tanlasangiz, u holda bizning ariza shaklimizni to'ldirishingiz talab qilinadi.

To'ldirilgan shaklni pasport nusxasi va baholar tabeli kabi kerakli hujjatlar bilan birga topshirish lozim.

Ariza shaklini bizning veb–saytimizdan va maktabning qabul komissiyasidan olishingiz mumkin.

3

O'QISHGA QABUL QILISH UCHUN BAHOLASH TARTIBI

Kerakli hujjatlar va to'ldirilgan ariza shakli qabul qilib olinganidan so'ng, qabul komissiyasi a'zosi suhbat o'tkazish yoki baholash uchun siz bilan bog'lanadi. Maktab ma'muriyati bilan suhbatda ota-onalar va o'quvchilar ishtirok etishlari kerak.

Talabalarni o'qishga qabul qilishga mas'ul jamoamiz arizani ko'rib chiqadi va talabaning qabul talablariga qanchalik javob berishini baholaydi.



Biz kampusimizga tashrif buyurish, veb–saytimizni o'rganib chiqish yoki farzandingiz ta'lim olishi va kelajagi uchun nima sababdan aynan biz eng yaxshi tanlov ekanligimizni bilib olishingiz uchun sizni tajribali qabul komissiyamiz xodimlaridan biri bilan suhbatlashishga taklif qilamiz. Bugunoq bizga qo'ng'iroq qiling!



4

MAKTABGA QABUL QILINISH

Arizani ko'rib chiqqan holda o'qishga qabul qilish borasida yakuniy qaror maktab direktori tomonidan qabul qilinadi.

Talabalarining ota-onalariga suhbat va/yoki baholash tugaganidan so'ng 48 soat ichida maktabga qabul qilingan yoki qilinmaganliklari haqida yozma ravishda xabar beriladi.

5

KEYINGI QADAMLAR

Talabalar maktabimizga muvaffaqiyatli qabul qilinganidan so'ng, bizning qabul bo'limi xodimlarimiz ota-onalarga qabul jarayonidagi keyingi bosqichlar haqida ma'lumot beradi. Ota-onalar maktab formasi, maktabda ta'lim olish narxi va to'lovni amalga oshirish jarayoni, "NEXT STEPS" raqamli jihozlari va maktabda darslar boshlanishi bo'yicha

batafsil ma'lumot va ko'rsatmalarni oladilar. Qabul bo'limi xodimlari va rahbariyatimiz hamisha bo'lajak talabalarimiz va ularning oila a'zolarini iliq kutib olishga tayyor. Sizni tez orada kampusimizda intizol bilan kutib qolamiz!



Ochiq eshiklar kuniga tashrif buyurish

Ochiq eshiklar kuni maktabimiz bilan tanishish, maktab ma'muriyati, o'qituvchilar va talabalar bilan uchrashish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Biz har hafta bo'lajak talabalar va ularning ota-onalariga "Canadian School of Tashkent" nima sababdan eng yaxshi tanlov ekanligini bilib olishlari uchun ochiq eshiklar kunini tashkillashtiramiz.



Virtual turni bron qilish

Ba'zida kampusga shaxsan tashrif buyurishga imkoningiz bo'lmasligini tushunamiz.


Shuning uchun bizning qabul komissiyamiz sizga kampus bo'ylab virtual turni taklif qiladi.



Hoziroq ariza topshiring

Biz ota-onalar va bo'lajak talabalarga onlayn ariza shaklini taqdim etishdan mamnunmiz. Ushbu oddiy va oson ariza shaklini to'ldirganingizdan so'ng, biz sizning arizangizni ko'rib chiqamiz va qabul jarayonini muhokama qilish uchun siz bilan bog'lanamiz. Onlayn ariza shaklini bizning saytimizdan olishingiz mumkin:

www.canadianschool.uz



Biz bilan chat orqali suhbatlashing

Onlayn chat - bu sizga ajoyib kampusimiz haqida ma'lumot berish va barcha savollaringizga javob berishning ajoyib usuli. Bizning veb-saytimizda va Telegram, Facebook va Instagram kabi ijtimoiy tarmoqlarimizda chat funksiyasi mavjud. Bugunoq biz bilan bog'laning!

TA'LIM OLISH UCHUN TO'LOV

Biz o'z farzandlariga yuqori sifatli xalqaro ta'lim berishni istayotgan oilalar uchun hamyonbop va inklyuziv variantni taqdim etishga harakat qilamiz.

Bizning ta'lim uchun to'lov siyosatimiz eng yaxshi va iqtidorli talabalarni jalb qilish va ijtimoiy, iqtisodiy yoki etnik kelib chiqishidan qat'i nazar, barcha bolalar uchun yuqori sifatli Kanada ta'limini doimiy ravishda taqdim etishga qaratilgan.

Qabul komissiyamiz vakillari ota-onalarga o'qish uchun to'lovni amalga oshirish va mavjud imkoniyatlar bilan bog'liq har qanday savollar bo'yicha yordam berishga tayyor.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun bugunoq bizga qo'ng'iroq qiling!

STIPENDIYA IMKONIYATLARI

Biz bo'lajak talabalarimizga mamnuniyat bilan bir qator stipendiyalar va chegirmali paketlarni taklif qilamiz.

Chegirmalar maktabda bir nechta farzandi ta'lim olayotgan oilalar uchun taqdim etiladi.

Iltimos, chegirmalar va stipendiyalar haqida ko'proq ma'lumot olish uchun qabul bo'limi xodimlariga murojaat qiling.







Kanada ta'limi – bu farzandingizga qimmatli sarmoya va uning kelajagini shakllantirish uchun to'g'ri qaror.




**Canadian School
of Tashkent**

 canadianschool.uz

 info@canadianschool.uz

 +998 (77) 777-85-85

 04 Fargona ko'chasi,
Tashkent sh., Mirobod
Tumani, Uzbekistan